



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI REKTORI
BUYRUG‘I

2026-yil “21”-yanvar 12-IB-son Urganch shahar

Institutda davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi
to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 276-son qarori va institut Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi 5-sonli yig‘ilish bayonnomasi qarori ijrosini ta’minlash hamda institutda davlat xaridlari jarayonining shaffofligini ta’minlash va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Urganch davlat pedagogika institutining “Davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur Nizom talablariga muvofiq quyidagilar majburiy etib belgilansin:

Xarid komissiyasi a’zolari tomonidan har bir lot bo‘yicha **Manfaatlar to‘qnashuvi yo‘qligi haqidagi arizani** (Nizomning 4-ilovasi) imzolash;

Har bir shartnoma tuzilishidan oldin kontragentlarni o‘rnatilgan tartibda majburiy tekshirish.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i (A.Djumaniyazov)ga;

Davlat xaridlari jarayonida Nizom talablariga rioya etilishi ustidan doimiy monitoring o‘rnatish;

Har oy yakuni bilan Buxgalteriya bo‘limidan xaridlar bo‘yicha hisobotlarni qabul qilib, tahlil qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Moliya-iqtisod bo‘yicha prorektor (I.Samandarov) va Bosh hisobchi (X.Latipov)larga;

Xaridlar reja-jadvalining o‘z vaqtida portalga joylashtirilishi hamda xaridlarning belgilangan byudjet parametrlari doirasida amalga oshirilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

5. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i (O.Matsapayev)ga;
mazkur buyruq va tasdiqlangan Nizomni institutning rasmiy veb-saytiga jamoatchilik nazorati uchun joylashtirilishini ta'minlasin.

6. Xodimlar bo'limi boshlig'i (Sh.Raximov)ga;
Institutning barcha moddiy javobgar shaxslari, xarid komissiyasi a'zolari va buxgalteriya xodimlarini ushbu Nizom bilan imzo qo'ydirgan holda tanishtirish ishlarini tashkil etsin.

7. Devonxona mudiri (D.Bekberganova)ga;
O'rnatilgan tartibda ushbu buyruqni tegishli tarkibiy bo'linmalariga ijro uchun yetkazsin.

8. Mazkur buyruq ijrosini nazorat etish Moliya-iqtisod bo'yicha prorektor I.Samandarov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 276-son qarori va institut Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi 5-son yig'ilish bayonnomasi.

Rektor



F.Madraximova

**Urganch davlat pedagogika institutining davlat xaridlarini
amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1. Umumiy qoidalar.

1.1. Urganch davlat pedagogika institutining davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) Urganch davlat pedagogika instituti (keyingi o‘rinlarda – Institut) tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilinishini tartibga soladi.

1.2. Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zR Prezidentining qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 460-sonli qarori (2022-yil) hamda 2026-yilgi budjet parametrlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.3. **Asosiy tamoyillar:** Kasbiy mahorat, asoslanganlik, mablag‘lardan foydalanishning oqilonaligi, shaffoflik va raqobat.

2. Xarid qilish tartib-taomillari va mezonlari.

Institutda xaridlar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- **Elektron magazin:** Eng kam ish haqining 250 baravarigacha (*budjet mablag‘lari uchun*).

- **Auksion:** Tovarning standart xususiyatlari bo‘lganda, faqat narx mezonlari asosida.

- **Tender (Elektron):** Shartnoma qiymati BHMning 6000 baravaridan yuqori bo‘lganda (*murakkab texnik talablar bilan*).

- **Eng yaxshi takliflarni tanlash:** Narx va sifat mezonlari uyg‘unligida.

- **To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali.**

2.1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlarni amalga oshirish asoslari:

Institut quyidagi istisnoli holatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish huquqiga ega;

Yagona yetkazib beruvchilar bilan: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan yuritiladigan “Yagona yetkazib beruvchilar reestri”ga kiritilgan sub’ektlar bilan (masalan: elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi, aloqa xizmatlari va h.k.).

Prezident yoki Hukumat qarorlari asosida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida muayyan yetkazib beruvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish belgilangan bo‘lsa.

Mualliflik huquqi va intellektual mulk: Agar xarid predmeti (*masalan, xorijiy ilmiy ma’lumotlar bazalariga obuna yoki muayyan darsliklar*) faqat bir shaxsda mavjud bo‘lsa va uning muqobili bo‘lmasa.

Favqulodda holatlar: Texnogen ofatlar, epidemiyalar yoki baxtsiz hodisalar oqibatlarini bartaraf etish uchun zudlik bilan xarid qilish zarur bo'lganda.

2.2. To'g'ridan-to'g'ri xaridlarni amalga oshirish tartibi:

Har bir to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishdan oldin institutning **Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens-nazorat" bo'limi** shartnomaning asosliligi va narxlarning bozor kon'yunkturasiga mosligi yuzasidan xulosa berishi shart.

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilgan kundan boshlab **3 ish kunidan kechiktirmasdan** davlat xaridlari portalida (xarid.uz) ro'yxatdan o'tkazilishi va e'lon qilinishi shart.

Ta'sischilari institut xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari bo'lgan kompaniyalar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish qat'iyon taqiqlanadi (**Manfaatlar to'qnashuvi**).

3. Xarid komissiyasining faoliyati.

3.1. Institut rektori buyrug'i bilan kamida 5 kishidan iborat Xarid komissiyasi tuziladi.

3.2. Xarid komissiyasi raisi etib institut rahbari yoki uning iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinbosari tayinlanadi.

3.3. Komissiya a'zolari manfaatlar to'qnashuvi yo'qligi haqida deklaratsiya imzolaydilar.

4. Xarid tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi.

(O'zR VMning 20.05.2021 yildagi 276-son qarori asosida)

4.1. Xaridlarni rejalashtirish va tayyorgarlik ko'rish

Institut xarid qilinishi rejalashtirilayotgan tovarlar (*ishlar, xizmatlar*) bo'yicha yil boshida mazkur Nizomning 1-ilovaga muvofiq **xaridlar reja-jadvalini** shakllantiradi va uni xarid.uz portaliga joylashtiradi.

4.1. Har bir lot bo'yicha kafedra mudirlari yoki bo'lim boshliqlari tomonidan 2-ilovaga muvofiq **Texnik topshiriq (TZ)** ishlab chiqiladi. Texnik topshiriqda raqobatni cheklovchi yoki muayyan ishlab chiqaruvchiga imtiyoz beruvchi talablar qo'yilishi taqiqlanadi.

Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha kafedra mudirlari yoki bo'lim boshliqlari tomonidan mazkur Nizomning 3-ilovasi keltirilgan tartibda Xizmat xati (Bildirishnoma) ishlab chiqadi.

5. Xarid komissiyasining ishini tashkil etish

5.1. 276-sonli qarorga muvofiq, komissiya yig'ilishi a'zolarining kamida **2/3 qismi (kquorum)** ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

5.2. Qarorlar oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng kelib qolgan taqdirda, komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

5.3. Komissiyaning har bir a'zosi eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va to'g'ridan-to'g'ri xarid turlari bo'yicha takliflar ochilgan vaqtda muayyan lot

bo'yicha Nizomning 4-ilovasiga muvofiq **Manfaatlar to'qnashuvi yo'qligi haqida arizani** imzolaydi.

5.4. Xodimlar tomonidan taqdim etilgan arizalar Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limida Nizomning 5-ilovasiga muvofiq yuritiladigan elektron jurnalga qayd etib boriladi.

5.5. Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi tomonidan mazkur xarid jarayonida ishtirok etayotgan xarid komissiyasi a'zolari va talabgorlar (*yetkazib beruvchilar*) o'rtasidagi aloqadorlik o'rganilib, manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi to'g'risida Nizomning 6-ilovaga muvofiq xulosa qabul qiladi. Bu hujjat xarid bayonnomasiga majburiy ilova qilinadi.

6. Xarid turlari va o'tkazish muddatlari (276-son qaror me'yorlari asosida).

- **Eng yaxshi takliflarni tanlash:** E'lon portalga takliflarni qabul qilish muddati tugashidan kamida **5 ish kuni** oldin joylashtiriladi.

- **Tender:** E'lon takliflarni qabul qilish muddati tugashidan kamida **15 kalendar kuni** oldin joylashtiriladi.

- **Takliflarni baholash:** Komissiya takliflarni qabul qilish to'xtatilgan kundan boshlab **10 ish kunidan** ortiq bo'lmagan muddatda baholashni yakunlashi va mazkur nizomning 7-ilovasiga muvofiq bayonnomani rasmiylashtirishi shart.

7. G'olibni aniqlash va baholash mezonlari.

7.1. Standart tovarlar bo'yicha g'olib **eng past narx** mezonini asosida aniqlanadi.

7.2. Murakkab lotlar (masalan, ilmiy laboratoriya jihozlari) uchun **balli tizim** qo'llaniladi:

- Texnik qism (*tajriba, sifat, muddat*) — 70 ballgacha.
- Tijorat qismi (*narx*) — 30 ballgacha.

7.3. Bayonnomada asosiy g'olib bilan birga albatta "**Zahiradagi g'olib**" (ikkinchi o'rin) ko'rsatiladi.

8. Shartnoma tuzish va shikoyat qilish

8.1. Baholash bayonnomasi e'lon qilingandan so'ng "**kutish davri**" (shikoyat qilish muddati) boshlanadi. Bu muddat tanlash uchun **2 ish kuni**, tender uchun **10 kalendar kuni** etib belgilanadi.

8.2. Kutish davrida shartnoma tuzish taqiqlanadi. Agar shikoyat tushmasa, tizim orqali g'olib bilan shartnoma elektron imzolanadi.

9. Korrupsiyaga qarshi choralar va Komplaens-nazorat.

9.1. Har bir xarid jarayoni institutning **Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens-nazorat" tizimi** boshqarish bo'limi tomonidan monitoring qilinadi.

Har oy yakuni bilan har qanday qilingan davlat xaridlari bo'yicha Buxgalteriya bo'limi tomonidan Nizomning 8-ilovasiga muvofiq **Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens-nazorat" tizimi** boshqarish bo'limiga Davlat xaridlari va amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha oylik tahliliy hisobot taqdim etilishi shart.

9.2. **Affillanganlik:** Yetkazib beruvchi va xarid komissiyasi a'zolari o'rtasida qarindoshlik yoki til biriktirish holatlari aniqlansa, xarid bekor qilinadi.

9.3. Barcha xarid reja-jadvallari kamida 6 oy oldin maxsus portalda (xarid.uz) e'lon qilinishi shart.

10. Kontragentlarni (yetkazib beruvchilarni) lozim darajada tekshirish tartibi.

10.1. Tekshirishning maqsadi va majburiyligi:

Institut bilan shartnoma tuzadigan (*eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va to'g'ridan-to'g'ri xarid turlari bo'yicha*) barcha yetkazib beruvchilar (*kontragentlar*) shartnoma imzolanishdan oldin Moddiy buxgalter tomonidan majburiy tartibda tekshiriladi.

Kontragentlarni tekshirish ishlari Institut rektorining 2024-yil "13" avgustdagi 133-IB-sonli buyrug'ining 6-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan "Kontragentlarni tekshirish yo'riqnomasi"da belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Tekshiruvdan maqsad — insofsiz yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qilishning oldini olish, institutning moliyaviy va obro' (reputatsiya) yo'qotishlarini bartaraf etishdir.

10.2. Tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish:

Har bir tekshirilgan kontragent bo'yicha Institutning "Kontragentlarni tekshirish yo'riqnomasi"ning 4-ilovasiga muvofiq **"Kontragentni tekshirish haqidagi hisobot** to'ldiriladi.

Agar tekshiruv davomida kontragentda yuqori xavf (*masalan, soliqdan katta qarzdorlik yoki soxta manzil*) aniqlansa, u bilan shartnoma tuzish rad etiladi.

11. Ishtirokchilarning (yetkazib beruvchilarning) malaka talablari.

11.1. Umumiy malaka talablari

Ishtirokchilar xarid tartib-taomillarida qatnashish uchun quyidagi majburiy talablarga javob berishi shart:

Huquqiy layoqat: Shartnoma tuzish bo'yicha huquqiy vakolatga ega bo'lishi, davlat ro'yxatidan o'tganligi (STIR mavjudligi) va zarur bo'lganda tegishli litsenziya yoki ruxsatnomaga ega bo'lishi.

To'lov qobiliyati: Soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha qarzdorligi mavjud emasligi.

Insoflilik: Xarid boshlanishidan kamida 2 yil oldin "Insofsiz ijrochilar reestri"ga kiritilmagan bo'lishi.

Sudlanganlik: Kontragentning rahbari yoki ta'sischisi iqtisodiy jinoyatlar yoki korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun sudlanmagan bo'lishi.

11.2. Maxsus (texnik) malaka talablari

Lotning murakkabligiga qarab, Xarid komissiyasi quyidagi qo'shimcha talablarni qo'yishi mumkin:

Ish tajribasi: Oxirgi 2-3 yil davomida shunga o'xshash tovarlarni yetkazib berish yoki xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha muvaffaqiyatli amalga oshirilgan kamida 2-3 ta shartnomaning mavjudligi.

Moddiy-texnik baza: Shartnomani ijro etish uchun zarur bo'lgan omborxonalar, transport vositalari, maxsus texnika yoki laboratoriya uskunalarining mavjudligi (*ijara yoki mulk huquqida*).

Kadrlar salohiyati: Maxsus bilim va sertifikatga ega bo'lgan malakali mutaxassislarning (*masalan, qurilish muhandislari yoki AT-mutaxassislari*) mavjudligi.

11.3. Moliyaviy holatga qo'yiladigan talablar

Aylanma mablag'lar: Oxirgi bir yil davomida ishtirokchining bank hisobvaraqlaridagi pul aylanmasi xarid qilinayotgan lot summasining kamida 20-30 foizini tashkil etishi (murakkab xaridlar uchun).

Moliyaviy barqarorlik: Ishtirokchi bankrotlik yoki tugatish jarayonida bo'lmasligi, uning mol-mulki xatlanmagan bo'lishi lozim.

Zaxira imkoniyati: Shartnoma shartlariga ko'ra, oldindan to'lovsiz yoki kam miqdordagi bo'nak bilan ishni boshlash imkoniyatining mavjudligi.

11.4. Malaka talablarini tasdiqlash tartibi

Ishtirokchi yuqoridagi talablarni tasdiqlash uchun quyidagi hujjatlarni portalga ilova qiladi:

- So'nggi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (2-shakl);
- O'xshash shartnomalar ro'yxati va ularning bajarilganligi haqida dalolatnomalar;
- Mutaxassislarning diplomlari yoki sertifikatlari.

Taqiq: 276-sonli qarorga asosan, Xarid komissiyasi tomonidan xarid hujjatlarida ko'rsatilmagan qo'shimcha malaka talablarini qo'yish qat'iyan taqiqlanadi.

12. Eng yaxshi takliflarni tanlash va tender davlat xaridlari turi bo'yicha ishtirokchilarning malaka va tijorat takliflari Komissiya tomonidan 9-ilovaga muvofiq baholanadi va komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

Baholash jarayoni bo'yicha muhim qoidalar:

Narxni hisoblash formulasi:

$$B = (P_{min}/P_i) \times 30$$

B equals open paren cap P sub m i n end-sub / cap P sub i close paren cross 30
$$B = (P_{min}/P_i) \times 30$$

(Bu yerda P_{min} cap P sub m i n end-sub P_{min} eng past narx, P_i cap P sub i P_i – baholanayotgan ishtirokchi narxi).

Shaffoflik: baholash bayonnomasida har bir a'zo qaysi mezon uchun qancha ball bergani va nima sababdan bunday baholagani **asoslanishi** shart.

Rad etish: Agar ishtirokchi texnik qism bo'yicha belgilangan minimal ballni (masalan, 70 dan kamida 40 ball) to'play olmasa, uning narx taklifi ko'rib chiqilmaydi va u jarayondan chetlatiladi.

13. Shartnomalarni tuzish va ijrosini monitoring qilish

G‘olib bilan shartnoma elektron raqamli imzo orqali tuziladi.

Tovarlarni qabul qilishda institutning ombor mudiri va tegishli mutaxassislaridan iborat **Qabul qilish komissiyasi** dalolatnoma tuzadi.

Shartnoma ijrosi haqidagi ma’lumotlar (hisob-fakturalar) jamoatchilik nazorati uchun ochiq e’lon qilinadi.

14. Javobgarlik

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzgan shaxslar ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladi.

“T A S D I Q L A Y M A N”
Urganch davlat pedagogika instituti
rektori _____ (F.I.Sh.)

“ ” yanvar 2026-yil

**Urganch davlat pedagogika institutining 2026-yil uchun davlat
xaridlari reja-jadvali**

T/r	Xarid predmeti nomi	Xaridning taxminiy qiymati (so‘m)	Xarid turi (usuli)	Xarid o‘tkazilish muddati (chorak)	Moliyalashtirish manbai
1.	Kanselyariya tovarlari to‘plami (qog‘oz, ruchka, papka va h.k.)	150 000 000	Elektron magazin	I-chorak	Budjet / To‘lov-kontrakt
2.	O‘quv va ilmiy adabiyotlar (shu jumladan xorijiy)	450 000 000	Tanlash / To‘g‘ridan-to‘g‘ri (71-m)	II-chorak	Budjetdan tashqari
3.	Zamonaviy kompyuter jamlanmalari (IT-markaz va kafedralar uchun)	850 000 000	Auksion / Tanlash	I-II chorak	To‘lov-kontrakt
4.	Kimyo va Biologiya laboratoriya jihozlari	1 200 000 000	Tender	II-chorak	Grant / Budjet
5.	Institut binolarini joriy ta‘mirlash ishlari	600 000 000	Tanlash (Shaffof qurilish)	II-III chorak	Rivojlantirish jamg‘armasi
6.	Mebellar to‘plami (parta, stul, shkaflar)	300 000 000	Auksion	I-chorak	To‘lov-kontrakt
7.	Veb-saytni texnik qo‘llab-quvvatla va SMM xizmatlari	80 000 000	Elektron magazin	I-chorak	Budjetdan tashqari
8.	Yuridik va audit xizmatlari	50 000 000	To‘g‘ridan-to‘g‘ri (shartnoma)	Yil davomida	Budjetdan tashqari
9.	Elektr va issiqlik energiyasi, suv ta‘minoti	Tarif bo‘yicha	To‘g‘ridan-to‘g‘ri (Monopoliya)	I-IV chorak	Budjet

**Moliya-iqtisod ishlari
bo‘yicha prorektor**

(imzo)

(F.I.Sh)

“T A S D I Q L A Y M A N”
Urganch davlat pedagogika instituti
rektori _____ (F.I.Sh.)

“__” _____ 2026-yil

TOVARLAR (ISHLAR, XIZMATLAR) XARIDI UCHUN TEXNIK TOPSHIRIQ
(Lot raqami: _____)

1. Umumiy ma'lumotlar

- Xarid predmeti nomi: (Masalan: Kimyo laboratoriyasi uchun asbob-uskunalar)
- Buyurtmachi bo'linma nomi: (Masalan: Tabiiy fanlar kafedrası)
- **Moliyalashtirish manbai:** (Budjet, budjetdan tashqari yoki grant mablag'lari)

2. Texnik tavsiflar (Asosiy qism)

(Bu yerda tovarning sifati, o'lchamlari, quvvati va boshqa texnik ko'rsatkichlari yoziladi)

T/r	Tovar/xizmat nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Texnik talablar (xususiyatlari)
1	Elektron mikroskop	dona	2	Kamida 1000x kattalashtirish, LED yoritgich, USB port
2	Noutbuk (pedagog uchun)	dona	10	Ekran 15.6", RAM 16GB, SSD 512GB, kamida i5 12-avlod

Diqqat: Texnik tavsifda muayyan brend yoki ishlab chiqaruvchi nomi (masalan, “Samsung”, “HP”) ko'rsatilmaligi shart. Agar ko'rsatilsa, albatta **“yoki uning ekvivalenti”** iborasi qo'shiladi.

3. Yetkazib berish shartlari

- **Yetkazib berish muddati:** Shartnoma imzolangan kundan boshlab ____ kalendar kuni ichida.
- **Yetkazib berish joyi:** Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 2-uy (Institut binosi).
- **Qadoqlash:** Tovarlar tashish paytida shikastlanmasligi uchun standart qadoqlarda bo'lishi lozim.

4. Sifat va kafolat talablari

- **Tovarning holati:** Yangi (foydalanilmagan), ishlab chiqarilgan yili 2025 yildan past bo'lmasligi shart.
- **Kafolat muddati:** Kamida ____ oy (yil).
- **Sertifikat:** Muvofiqlik sertifikati va texnik pasport mavjudligi.

5. Malaka talablari (Ishtirokchi uchun)

- Yetkazib beruvchi ushbu sohada kamida ____ yillik tajribaga ega bo'lishi lozim.
- Urganch shahrida servis xizmati yoki vakolatli vakili mavjudligi (murakkab jihozlar uchun).

6. To'lov shartlari

- Oldindan to'lov (bo'nak) miqdori: ____ % (odatda 30%).
- Yakuniy to'lov: Tovarlar qabul qilish dalolatnomasi imzolangandan so'ng ____ kun ichida.

Texnik topshiriqni ishlab chiqdi:

Kafedra mudiri (Bo'lim boshlig'i): _____ (F.I.Sh.)

Imzo: _____

Kelishildi:

Xarid komissiyasi raisi: _____

Yurist: _____

Komplaens-nazoratchi: _____

XIZMAT XATI (Bildirishnoma)

Kimga: Urganch DPI rektori _____ga

Kimdan: _____ (Bo'lim yoki kafedra nomi)

Sana: 2026 yil " " _____

To'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishga ruxsat berish va asoslash to'g'risida

Urganch davlat pedagogika institutining uzluksiz o'quv jarayonini ta'minlash va _____ (maqsadni yozing, masalan: xorijiy ilmiy bazalardan foydalanish) maqsadida quyidagi xaridni amalga oshirish zarurati yuzaga keldi:

1. **Xarid**

predmeti: _____

2. **Taxminiy qiymati:** _____ so'm.

3. **Tanlangan yetkazib beruvchi:** _____

To'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishning huquqiy va iqtisodiy asoslari:
(Quyidagi bandlardan birini tanlang yoki moslashtiring)

• **Asos 1 (Yagona yetkazib beruvchi):** Mazkur xizmat/tovar O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni 71-moddasiga muvofiq "Yagona yetkazib beruvchilar reestri"ga kiritilgan sub'ekt tomonidan ko'rsatiladi.

• **Asos 2 (Mualliflik huquqi):** Xarid qilinayotgan mahsulot intellektual mulk ob'ekti hisoblanib, uning yagona huquq egasi (yoki rasmiy distribyutori) _____ hisoblanadi. Boshqa muqobil yetkazib beruvchilar mavjud emas.

• **Asos 3 (Hukumat qarori):** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining/Vazirlar Mahkamasining 20__ yil "___" _____dagi ___-sonli qarorining ___-bandiga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish belgilangan.

Manfaatlar to'qnashuvi:

Tasdiqlaymanki, ushbu yetkazib beruvchi va institut xodimlari (shu jumladan men) o'rtasida O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunida ko'zda tutilgan shaxsiy yoki yaqin qarindoshlik aloqalari mavjud emas.

Ilova:

1. Yetkazib beruvchining eksklyuziv huquqini tasdiqlovchi hujjat nusxasi.

2. Narxlarining bozor kon'yunkturasiga mosligi haqida ma'lumotnoma (kamida 2 ta boshqa muqobilning yo'qligi tahlili).

Bo'lim boshlig'i (Kafedra mudiri): _____ (Imzo)

MANFAATLAR TO‘QNASHUVI YO‘QLIGI HAQIDA ARIZA

Ob’ekt: _____ (Lot
raqami va xarid predmeti nomi)

Sana: 2026 yil «__» _____

Men, _____ xarid komissiyasi a’zosi
(F.I.Sh.), mazkur

arizani imzolash orqali quyidagilarni tasdiqlayman:

1. **Bevosita aloqaning yo‘qligi:** Ushbu xarid tartib-taomilida ishtirok etayotgan talabgorlarning (yetkazib beruvchilarning) rahbarlari, ta’sischilari yoki ishonchli vakillari bilan yaqin qarindoshlik (ota-ona, aka-uka, opa-singil, farzand, er-xotin, shuningdek er-xotinlarning ota-onasi, aka-ukasi va opa-singlisi) aloqalariga ega emasman.

2. **Tijorat manfaatdorligining yo‘qligi:** Talabgorlarning ustav kapitalida (ulushida) shaxsan o‘zim yoki yaqin qarindoshlarim ishtirok etmaydi, ulardan moddiy yoki boshqacha ko‘rinishdagi manfaatdorlik va’da qilinmagan.

3. **Xizmat aloqalarining yo‘qligi:** Oxirgi 12 oy davomida ushbu xarid ishtirokchilari bo‘lgan kompaniyalarda ishlamaganman va ular bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida hamkorlik qilmaganman.

4. **Xabar berish majburiyati:** Agar xarid jarayoni davomida menga yuqoridagi holatlar yoki boshqa turdagi manfaatlar to‘qnashuvi ma’lum bo‘lib qolsa, bu haqida zudlik bilan xarid komissiyasi raisini va institutning Korrupsiyaga qarshi kurashish «komplaens-nazorat» bo‘limini xabardor qilish majburiyatini olaman.

Ogohlantirish: Manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlarni qasddan yashirganlik yoki noto‘g‘ri ma’lumot berganlik uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq (Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 193-4-moddasi va boshqalar) shaxsan javobgar ekanligim to‘g‘risida ogohlantirildim.

Xarid komissiyasi a’zosi: _____ (Imzo)

**Manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi deklaratsiya va
arizalarni ro‘yxatga olish
JURNALI**

T/r	Sana	Xodimning F.I.Sh. va lavozimi	Xarid ob’ekti (Lot raqami)	Ariza mazmuni (Mavjud/Mavjud emas)	Ko‘rilgan choralar (Komissiyadan chetlatish va h.k.)	Mas’ul xodim imzosi
1	15.01.2026	Ismoilov A. (Kafedra mudiri)	Lot №34567 (Mebel)	Mavjud emas	Jarayonga ruxsat berildi	(Imzo)
2	15.01.2026	Salimov B. (Komissiya a’zosi)	Lot №34580 (Kompyute r)	Mavjud (Affillanganlik)	Komissiya a’zolidan chetlatildi	(Imzo)

MANFAATLAR TO‘QNASHUVI MAVJUD EMASLIGI TO‘G‘RISIDA
XULOSA № _____

Sana: 2026 yil “ ____ ” _____

Xarid

predmeti: _____

Lot raqami: _____

O‘tkazilgan o‘rganishlar natijasi: Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplains-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan mazkur xarid jarayonida ishtirok etayotgan xarid komissiyasi a‘zolari va talabgorlar (yetkazib beruvchilar) o‘rtasidagi aloqadorlik o‘rganildi.

1. **Komissiya a‘zolari bo‘yicha:** Barcha a‘zolar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi yo‘qligi haqida arizalar taqdim etilgan. Tashqi bazalar (Soliq.uz, Stat.uz) orqali tekshirilganda yashirin aloqalar aniqlanmadi.

2. **Talabgorlar bo‘yicha:** G‘olib deb topilgan “ _____ ” MChJ va institut mansabdor shaxslari o‘rtasida qarindoshlik yoki tijoriy sheriklik holatlari mavjud emas.

YAKUNIY XULOSA: Mazkur xarid jarayonida O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni va ichki Nizom talablari buzilishi holatlari **aniqlanmadi**. Xarid natijalarini rasmiylashtirishga **ruxsat beriladi**.

Komplains-nazorat bo‘limi boshlig‘i: _____ (F.I.Sh.)

Imzo: _____

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
XARID KOMISSIYASINING BAHOLASH VA G‘OLIBNI ANIQLASH
BAYONNOMASI №_____

Urganch shahri

2026 yil «__» _____

Lot

raqami: №_____

Xarid predmeti: _____

Xarid turi: _____ (Tanlash/Tender)

Moliyalashtirish manbai: _____

Ishtirok etgan komissiya a’zolari:

1. _____ – Rais (Institut rahbariyati)
2. _____ – A’zo (Mutaxassis/Kafedra mudiri)
3. _____ – A’zo (Moliyachi/Buxgalter)
4. _____ – A’zo (Yurist)
5. _____ – Kotib (Xaridlar bo‘limi)

KUN TARTIBI:

Taqdim etilgan takliflarni baholash, ishtirokchilarning ishonchliligini (chek-list asosida) tekshirish va xarid g‘olibini aniqlash.

ISHNING BORISHI:

1. Takliflar tahlili: Belgilangan muddatda quyidagi ishtirokchilardan takliflar kelib tushdi:

1-ishtirokchi: “_____” MCHJ (Narxi: _____ so‘m)

2-ishtirokchi: «_____» MCHJ (Narxi: _____ so‘m)

3. Ishonchlilikni tekshirish (Chek-list natijalari):

Institutning Komplaens-nazorat bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv (*chek-list*) natijalariga ko‘ra:

“_____” MChJ: **Yashil hudud** (*Xavf aniqlanmadi*).

“_____” MChJ: **Qizil hudud** (*Insofsiz ijrochilar reestrda mavjud / Soliq qarzdorligi bor*) — Baholash jarayonidan chetlatildi.

3. Baholash natijalari (Balli tizim yoki Eng past narx):

Komissiya a’zolari ishtirokchilarning malaka va tijorat takliflarini Nizom talablari asosida baholab, quyidagicha xulosaga keldilar:

Ishtirokchi nomi	Malaka bahosi (max 30)	Tijorat bahosi (max 70)	Jami ball
1-ishtirokchi	_____	_____	_____

2-ishtirokchi	_____	_____	_____
---------------	-------	-------	-------

KOMISSIYA QARORI:

1. O'tkazilgan baholash va **Chek-list** natijalariga ko'ra, eng yuqori ball to'plagan va barcha mezonlarga mos kelgan "_____"
MChJ ushbu xaridning **G'OLIBI** deb topilsin.

2. Ikkinchi o'rinni egallagan "_____"
MCHJ ZAHIRADAGI G'OLIB deb belgilansin.

3. Xaridlar bo'limi (Kotib) 2 ish kuni ichida bayonnomani portalga joylashtirishni va "kutish davri" tugagach, g'olib bilan shartnoma rasmiylashtirishni ta'minlasin.

4. Komissiya a'zolari ushbu xarid bo'yicha hech qanday **Manfaatlar to'qnashuvi** mavjud emasligini o'z imzolari bilan tasdiqlaydilar.

Imzolar:

Rais: _____ (F.I.Sh.)

A'zolar: _____ (F.I.Sh.)

_____ (F.I.Sh.)

Kotib: _____ (F.I.Sh.)

“TASDIQLAYMAN”

Urganch DPI bosh buxgalteri

“ ” _____ 2026 y.

**Davlat xaridlari va amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha oylik
TAHLILIY HISOBOT**
(2026 yil _____ oyi uchun)

1. Xaridlarning umumiy ko‘rsatkichlari

Xarid turi	Shartnomalar soni	Jami summa (so‘m)	To‘langan summa (so‘m)	Qarzdorlik (so‘m)
Elektron magazin				
Auksion				
Tanlash (Selection)				
Tender				
To‘g‘ridan-to‘g‘ri				
JAMI:				

2.To‘g‘ridan-to‘g‘ri va istisnoli xaridlar tahlili

Ushbu bo‘limda oy davomida tendersiz tuzilgan shartnomalar asoslari ko‘rsatiladi.

Kontragent nomi	STIR (INN)	Shartnoma raqami va sanasi	Summasi	Xarid asosi (Qonun/Qaror bandi)

3. To‘lovlar monitoringi va shubhali holatlar

- Muddati o‘tgan debitorlik/kreditorlik:** Shartnoma shartlari buzilgan holatlar bormi? (Ha/Yo‘q). Agar bo‘lsa, sababi: _____.
- Bo‘nak (avans) to‘lovlari:** Shartnomada ko‘rsatilgandan ortiq yoki asossiz bo‘nak to‘lovlari amalga oshirildimi? (Ha/Yo‘q).
- Narxlar farqi:** Shartnoma summasi va haqiqiy to‘lov o‘rtasida tafovut bormi? (Ha/Yo‘q).

4. Manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik nazorati

(Hisobot davrida buxgalteriya tomonidan to'lov o'tkazish jarayonida kontragent va institut xodimlari o'rtasida shubhali bog'liqlik aniqlandimi?)

- Aniqlanmadi.
- Aniqlandi (Batafsil izoh: _____).

5. Ilova qilinadigan hujjatlar:

1. Oylik xaridlar reestri (Excel shaklida).
2. Bajirilgan ishlar dalolatnomalari va hisob-fakturalar nusxasi (tanlanma asosida).

Hisobotni tayyorladi:

Moddiy buxgalter: _____ (F.I.Sh.)
Imzo: _____

“Kelishildi”

Bosh buxgalter o'rinbosari: _____

Ishtirokchilarning malaka va tijorat takliflarini baholash JADVALI

Lot nomi: _____

Maksimal ball: 100 ball (Texnik qism — 70 ball, Narx — 30 ball)

№	Baholash mezonlari	Maks. ball	Baholash tartibi (Ball berish shkalasi)
I	TEXNIK VA MALAKA QISMI	70	
1.	Ish tajribasi (Oxirgi 3 yilda bajarilgan o'xshash shartnomalar)	25	1-2 yil bo'lsa — 10 ball; 3 yil va undan ortiq bo'lsa — 25 ball.
2.	Moddiy-texnik baza (Ombor, transport, maxsus texnika)	15	Mavjudligi tasdiqlansa — 15 ball; Qisman bo'lsa — 7 ball.
3.	Mutaxassislar malakasi (Sertifikat va diplomlar)	15	3 nafardan ko'p mutaxassis — 15 ball; 1-2 nafar bo'lsa — 8 ball.
4.	Yetkazib berish muddati (TZda ko'rsatilgandan tezroq bo'lsa)	10	Muddat 15% ga qisqarsa — 10 ball; TZ bo'yicha bo'lsa — 5 ball.
5.	Servis va kafolat (Qo'shimcha bepul xizmat ko'rsatish)	5	2 yildan ortiq kafolat — 5 ball; 1 yil kafolat — 2 ball.
II	TIJORAT (NARX) QISMI	30	
6.	Taklif etilgan narx	30	Eng past narx egasiga — 30 ball. Qolganlarga proporsional tarzda.
	JAMI:	100	